

O.Narzullayeva

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

**MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINI
JORIY ETISH ORQALI IQTISODIY TARAQQIYOTNI
JADALLASHTIRISH**

Annotatsiya: Ushbu maqolada MHXS milliy buxgalteriya hisobiga transformatsiyalash zaruriyati, ushbu hisobotlarni qo‘llash orqali iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirish va bu orqali iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611 qarori yurtimizda MHXS ni mamlakatimizda qo‘llanilishi uchun muhim asos bo‘lganligi haqida keltirib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, transformatsiyalash, investitsiya, hisobot, MHXS fondi.

**ACCELERATION OF ECONOMIC DEVELOPMENT THROUGH
IMPLEMENTATION OF INTERNATIONAL STANDARDS OF
FINANCIAL REPORTING**

Abstract: In this article, the need to transform the national accounting system into national accounting, to increase the flow of foreign investments into our economy through the use of these reports and thereby further develop our economy, as well as the President of the Republic of Uzbekistan "On additional measures to transition to international standards of financial reporting" in 2020 Decision PQ-4611 of February 24 is cited as an important basis for the application of the MHXS in our country.

Key words: international standards of financial reporting, transformation, investment, report, IFRS foundation.

Kirish

Hozirgi globallashuv sharoitida barcha mamlakatlar bu jarayonda faol ishtirok etishga va shu orqali jaxon bozorida yuqori o‘rin egallashga harakat qilishmoqda. Buning uchun esa albatta iste‘molchilarga aniq, ishonchli va shaffof bo‘lgan

ma'lumotlarni taqdim etish talab qilinadi. Shu boisdan ham hozirgi kunda 150 dan ortiq mamlakatlar o'z milliy buxgalteriya tizimida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanmoqda. Chunki bu standartlar barcha mamlakatlar uchun yagona bo'lgan biznes tili hisoblanadi.

Iqtisodchi olimlarimiz bunga quyidagicha fikr bildirishadi: hozirda MHXS – buxgalteriya hisobining xalqaro etaloni hisoblanadi. Xalqaro kapital bozorining o'zaro bog'liqligini inobatga olgan holda Moliyaviy Barqarorlik Forumi (Financial Stability Forum) tomonidan MHXS global iqtisodiyotning barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur 12 ta global standartning biri sifatida tan olindi. Shu sababli, MHXSni qabul qilayotgan mamlakatlar kundan-kunga ko'payib, u 150 dan ortiq kasbiy uyushmalarni qamrab oldi. (2019)

Bu borada mamlakatimizda ham MHXSni o'z milliy standartlarimizga transformatsiyalash orqali uyg'unlashtirish va ushbu standartlardan amaliyotda qo'llanilishi uchun qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevralda PQ-4611 "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori qabul qilinishi bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jadallashtirish uchun yana bir huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu qonunga binoan, 2021-yil 1-yanvardan boshlab aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi korxonalar MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarini tayyorlashi lozimligi hamda bu borada bajarilishi lozim bo'lgan masalalar belgilab qo'yildi. (PQ-4611, 2020)

Shuningdek, bu ishlarni jadallik bilan davom ettirgan xolda, iqtisodiyotimizga investitsiyalar kirib kelishini ko'paytirishimiz lozimligi prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev (2022) tomonidan ham yana bir bor ta'kidlab o'tildi: "Iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni ko'paytirish uchun sharoitlarni yanada yaxshilash ustuvor yo'nalish bo'ladi. Kelasi yili qariyb 30 milliard dollar sarmoya jalb qilinadi, shundan 25 milliard dollar xususiy investitsiyalar bo'ladi."

Iqtisodiyotimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanish orqali birinchi navbatda xalqaro axborotdan foydalanuvchilarga aniq, shaffof va barcha axborot iste'molchilari tushuna oladigan mahsulotni yetkazib bera olamiz. Bu orqali biz albatta iqtisodiyotimiz yanada rivojlanishi uchun xorijiy kapital, ya'ni investitsiyalar oqimini ko'paytirishga erishishimiz mumkun bo'ladi.

Shuningdek, MHXSlardan budget tashkilotlarida foydalanish uchun ham muhim tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Moliya vazirligida Fransiya taraqqiyot agentligi (FAR) va Expertise France ekspertlari bilan maslahat uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Ushbu missiya xalqaro davlat sektori moliyaviy

hisobotlari standartlari asosida budget hisobi standartlarini ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan iqtisodiy boshqaruvni takomillashtirish dasturi loyihasining davlat moliyasini isloh qilishni qo'llab-quvvatlash komponentini amalga oshirish doirasida tashkil etildi. Hozirgi kunda xalqaro hamkorlik doirasida ekspertlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga budget hisobi standartlarini ishlab chiqishda ularni O'zbekistonda MHXS bilan moslashtirish va uyg'unlashtirish bo'yicha texnik yordam ko'rsatmoqda. (2021)

Biz MHXSdan milliy iqtisodiyotimizda foydalanish orqali nafaqat xalqaro bozorga chiqishimiz, investitsiyalar oqimini ko'paytirishimiz mumkin, balki, barcha mamlakatlar iqtisodiyotida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni o'sha hisobotlar orqali o'rganib tahlil qilishimiz va solishtirishimiz mumkin bo'ladi. Bu esa albatta, o'z faoliyatimizni xalqaro darajada olib borishimiz uchun ham muhim bir sharoit yaratib beradi.

Adabiyotlar tahlili

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanish orqali mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirishimiz, investitsiyalar oqimini ko'paytirishimiz va axborotlar ishonchliligini oshirishimiz mumkin bo'ladi. Bu borada bir necha iqtisodchi olimlar izlanishlar olib borganlar. Quyida ularni keltirib o'tamiz:

Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent A.Z.Avlokulov (2017) fikricha, xalqaro standartlar asosida tuziladigan moliyaviy hisobotlar tashkilotni samarali boshqarishda zarur hisoblanadi. Xalqaro standartlarga o'tishdan asosiy maqsad xalqaro bozorga chiqish hamda investitsiyalarni jalb etishdir. Shuningdek xalqaro standartlar mamlakat iqtisodiyotini sifat jihatdan rivojlantirishga ham muhim hissa qo'shadi. Bu jarayonda qulay investitsion muhit, kompaniyalar faoliyati ochiqligi, boshqaruvning aksiyadorlar oldidagi hisobdorligi, korporativ boshqaruvning zamonaviy uslublarining joriy qilinishi aksiyadorlik jamiyatlarining rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi.

Iqtisodchi olim Auwalu Musa (2019) moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining qabul qilinishi jahon mamlakatlarida moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va taqqoslanuvchanligiga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan bog'liqdir, deb ta'kidlagan.

Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent S.Tashnazarov (2019) o'z izlanishlarida hisob va hisobotni xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish, shu asosda moliyaviy hisobotning dunyo miqyosida garmonizatsiyasiga erishish, ilg'or tajribalardan milliy darajada samarali foydalanish barcha mamlakatlar uchun eng muhim masalalardan biri ekanligini ta'kidlab o'tgan.

Iqtisodchi olimlar Sharipov Q.A. hamda Haydarova N.A. (2022) lar o‘z ishlarida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish hozirgi kunda muhim jarayonlardan biri ekanligi, xalqaro standartlar asosida tuzilgan hisobotlardan xorijiy investorlar tanishish imkoniyatiga ega bo‘lishi vas hu orqali o‘z sarmoyalarini kiritishi mumkunligini aytib o‘tganlar. Shuningdek har yili MHXS (IFRS) fondi tomonidan sohada yuzaga kelayotgan muammolar, ularning yechimlari va ushbu standartlarni yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada buxgalteriya hisobi milliy standartlarimizga MHXSlarni joriy etish zarurligi bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ishlari o‘rganildi hamda bu ma’lumotlar asosida tahlil xa xulosalar shakllantirildi. Bu jarayonda mavjud kamchiliklar yuzasidan takliflar berildi. Shuningdek, mazkur tahlil jarayoni yanada tushunarli va aniq bo‘lishi uchun maqolada rasm va jadvallar, kuzatish va tahlil usullaridan foydalanilgan.


Tahlil va natijalar muhokamasi

Ma'lumki, chet el kapitali tashkilotlar faoliyati to‘g‘risidagi moliyaviy ma'lumotlarning shaffofligini va investorlar uchun aniq ma’lumotlarga asoslangan hisobotni talab qiladi. Chunki investor ularga taqdim etiladigan kapitaldan qanday foydalanilishini kuzatishi lozim bo‘ladi. Xozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining har bir sohasi jadal suratlarda rivojlanishda davom etmoqda, iqtisodiyotimizda yangicha faoliyat turlari paydo bo‘lmoqda. Bularning barchasi esa albatta buxgalteriya hisobvaraqlarida to‘liq aks ettirilishi kerak. Shuning uchun ham xozirda barcha tashkilotlar uchun umumiy bo‘lgan hamda xalqaro axborotdan foydalanuvchilar uchun ham tushunarli bo‘lgan MHXSlaridan foydalanishga o‘tish uchun barcha chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida milliy buxgalteriya hisobini yuritish hamda moliyaviy hisobotlarni tuzish albatta ularda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarning oshkoraligini ta’minlaydi. Axborotlarning shaffofligi va aniqligi investor va banklarning tashkilot faoliyatini rivojlantirishga va investitsiya kiritish masalasini hal etishga yordam beradi. Iqtisodiyotimizda MHXSdan foydalanish-mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb etishga ulkan hissa qo‘shmoqda, buning natijasida esa ishlab chiqarish kengaymoqda, modernizatsiya qilish jarayonlari rivojlanmoqda, buning natijasida albatta yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda, iqtisodiy o‘sish barqarorligi ta’minlanmoqda.

Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini mamlakatimizda qo'llash, yanada yuqori sifatli moliyaviy hisobotlardan foydalanish davlat sektori faoliyati natijalarini baholashga katta imkoniyat yaratadi.

Misol uchun MHXSga o'tish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni 2016-yildan yanada kuchaytirilishi yurtimiz iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatishini 2016-2021 yillarda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar miqdorini dinamikasidan ham ko'rish mumkin (1-rasm):



1-rasm. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (2021-yil dekabr holatiga ko'ra) (stat.uz)

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, albatta pandemiya barcha mamlakatlar qatori bizning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Biroq, iqtisodiyotimizda amalga oshirilgan oqilona chora-tadbirlar natijasida investitsiyalar oqimi yana o'sishda davom etmoqda.

Bugungi kunda butun dunyoda ham MHXSni qabul qilgan davlatlar ko'payib bormoqda. Quyida ularni keltirib o'tamiz (1-jadval):

MHXSni qabul qilgan davlatlar (Tashnazarov, 2020)

MHXS ni qabul qilgan davlatlar	
Afrika davlatlari	Botsvana, Misr Arab Respublikasi, Keniya, Malavi, Mozambik, Namibiya, Janubiy Afrika Respublikasi, Tanzaniya.
Amerika davlatlari	Bagam orollari, Barbados, Braziliya, Kanada, Xitoy, Kosta-Rika, Dominikan Respublikasi, Ekvador, Gvatemala, Gayana, Gaiti, Gonduras, Yamayka, Nikaragua, Panama, Peru, Urugvay, Venesuela.
Osiyo davlatlari	Armaniston, Bahreyn, Bangladesh, Gruziya, Xitoy, Hindiston, Isroil, Iordaniya, Qozog'iston, Livan, Nepal, Ummon, Filippin, Qatar, Singapur, Janubiy Koreya, Tojikiston, Birlashgan Arab Amirligi, O'zbekiston.
Yevropa davlatlari	Avstriya, Belorussiya, Belgiya, Bosniya va Gertsogovina, Bolgariya, Xorvatiya, Kipr, Chexiya Respublikasi, Daniya, Estoniya, Finlandiya, Fransiya, Germaniya, Gretsiya, Vengriya, Islandiya, Irlandiya, Italiya, Latviya, Lixtenshteyn, Lyuksemburg, Makedoniya, Niderlandiya, Norvegiya, Polsha, Portugaliya, Ruminiya, Rossiya, Serbiya, Slovakiya, Sloveniya, Ispaniya, Shvetsiya, Turkiya, Ukraina, Buyuk Britaniya.
Okeaniya davlatlari	Avstraliya, Fiji, Yangi Zelandiya, Yangi Gviniya.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz munkunki, MHXS dan foydalanish darajasi salmoqli darajada va hozirgi kunda ham ko'plab mamlakatlar ushbu standartlardan

foydalanishga o'tishmoqda. Chunki, bu barcha uchun tushunarli va aniq ma'lumotlarga asoslangan buxgalteriya yozuvi hisoblanadi.

Xulosa

Global iqtisodiyot sharoitida hisob siyosatimizni ishonchli va tushunarli tarzda yuritish hamda xalqaro standartlarni qabul qilish bugungi kun talabi hisoblanadi. Zero, hisob siyosatining shaffofligi har qanday axborot foydalanuvchiga tushunarli va ma'lumotni qabul qiluvchilarga ya'ni malakali investorlarga moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda mamlakatimizda MHXS dan foydalanishni yanada jadallashtirish maqsadida quyidagi takliflarni keltirishimiz mumkun:

moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini o'zbek tiliga tarjima qilish va ularni milliy iqtisodiyotimizga transformatsiya qilishda professional jamoat tashkilotlarini va ushbu sohada kadrlar faoliyatini yanada rivojlantirish zarur;

shuningdek, auditorlik tekshiruvlarining sifatli o'tishi va auditorlik xulosasining ishonchli bo'lishi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida belgilangan prinsiplar asosida to'g'ri tuzilganligiga bog'liqdir. Shu boisdan ham moliyaviy hisobotlarni tuzishda buxgalteriya hisobining uzluksizlik, ehtiyotkorlik, ahamiyatlilik va boshqa prinsiplariga ham alohida e'tibor qaratish lozimdir;

iqtisodiyotimizda raqamlashtirish darajasini oshirishimiz, ya'ni ushbu xalqaro standartlar asosida tuziladigan moliyaviy hisobotlarda inson omilini aralashtirmasligimiz, buning uchun albatta maxsus dastur ishlab chiqilishi lozim.

Xulosa qilib aytishimiz mumkunki, MHXS dan foydalanish barcha mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanmoqda. Chunki, bunda MHXS barcha uchun tushunarli bo'lgan hujjat sifatida xizmat qilmoqda. Ko'pgina investorlar va boshqa moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar ushbu hujjatdan foydalanishda, unda keltirilgan ma'lumotlarni tushunishda ortiqcha mablag' va vaqt sarflashga muhtoj bo'lmayabdi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiyotimizni yanada yuqori pog'onalarga olib chiqishga imkon bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Sh.T. Ergasheva, A.K.Ibragimov, N.K.Rizayev, I.R.Ibragimova. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. T.:2019. 12-bet.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevralda PQ-4611 "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi. 20.12.2022.

“DSMHXS (IPSAS) asosida budjet hisobi standartlari rivojlantirish uchun qo‘llab-quvvatlash” loyihasi bo‘yicha Fransiya taraqqiyot agentligi (FAR) va Expertise France mutaxassislari bilan uchrashuv” nomli maqola. Moliya press. 2.12.2021.

Avlokulov A.Z. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida moliyaviy natijalar ko‘rsatkichlarini aks ettirish xususiyatlari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. №2, aprel, 2017 yil.

Auwalu Musa. The Role of IFRS on Financial Reporting Quality and Global Convergence: A Conceptual Review. International Business and Accounting Research Journal. Volume 3, Issue 1, January 2019, 67-76.

S.N.Tashnazarov. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) avtoreferati. T.: 2019. 74-bet.

Sharipov Q.A. va Haydarova N.A. MHXS (IFRS) bo‘yicha moliyaviy hisobotni tayyorlashning konseptual asoslari. “Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o‘tish va xalqaro tajribani O‘zbekistonda qo‘llashning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy - amaliy anjuman maqolalar to‘plami. 504-bet. 2022.

www.stat.uz Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.

S.N.Tashnazarov. va D.D.Pashaxodjayeva. xalqaro hisob asoslari. Samarqand. 2020. O‘quv qo‘llanma. 1-qism. 47-bet.